

Milliy iqtisodiyotda kichik biznesning o‘rni va ahamiyati

Xadicha Maxammat qizi Rustamova

elektronPochta@gmail.com

Buxoro xalqaro universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni hamda ahamiyati keng qamrovda tahlil qilingan. Kichik biznes iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini sifatida yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, aholi bandligini ta’minlash, daromadlar manbaini kengaytirish hamda bozor muvozanatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada kichik biznes subyektlarining moslashuvchanligi, innovatsion g‘oyalarni tez joriy etish qobiliyati va raqobat muhitini kuchaytirishdagi ustun jihatlari nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot jarayonida kichik biznes rivojining iqtisodiy mazmuni, uning milliy iqtisodiyotdagi funksiyalari va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, kichik biznesning hududiy rivojlanishga ta’siri, ayniqsa, kam rivojlangan hududlarda ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘lamini kengaytirishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining roli alohida o‘rganilib, soliq imtiyozlari, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari hamda institutsional muhitning takomillashuvi kichik biznes faoliyatini rag‘batlantiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o‘rni, bandlikni ta’minlash, aholi daromadlari, yalpi ichki mahsulot, bozor iqtisodiyoti, raqobat muhitini rivojlantirish, innovatsion faoliyat

The role and importance of small business in the national economy

Khadich Makhammat kizi Rustamova

elektronPochta@gmail.com

Bukhara International University

Abstract: In this article, the role and importance of small business and private entrepreneurship in ensuring the sustainable development of the national economy is widely analyzed. In this article, the role and importance of small business and private entrepreneurship in ensuring the sustainable development of the national economy is widely analyzed. Small business as an important link in the economy plays a role, as an article,

the role and importance of small business and private entrepreneurship in ensuring the sustainable development of the national economy is widely analyzed. Small business as an important link in the economy plays an important role in increasing the volume of gross domestic product, ensuring employment of the population, expanding the source of income and shaping the market balance. The article theoretically and practically substantiates the advantages of small businesses in terms of flexibility, the ability to quickly implement innovative ideas, and strengthening the competitive environment. In the process of research, the economic content of the development of small business, its functions in the national economy and socio-economic efficiency are analyzed. The impact of small businesses on territorial development has also been highlighted, especially its importance in expanding the scope of production and services in less developed areas. The article examines the role of state mechanisms for supporting small businesses, highlighting tax incentives, access to financial resources, and improvements in the institutional environment as key factors stimulating small business activity.

Keywords: small business, private entrepreneurship, national economy, economic growth, employment assurance, population income, gross domestic product, market economy, development of competitive environment, innovative activities

KIRISH

Hozirgi globallashuv va bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o'rin egallaydi. Kichik biznes iqtisodiy tizimning eng moslashuvchan, tezkor va raqobatbardosh bo'g'ini hisoblanib, u aholining bandligini ta'minlash, daromad manbalarini ko'paytirish, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirish hamda o'rta sinf shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishda va ijtimoiy muammolarni hal etishda kichik biznesning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Milliy iqtisodiyotda kichik biznesning rivojlanishi, avvalo, bozor mexanizmlarining samarali ishlashiga xizmat qiladi. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritib, yirik korxonalar uchun raqobat muhitini shakllantiradi. Bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati oshishiga, tannarx pasayishiga va innovatsion faoliyatning kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga, kichik biznes bozor talabiga tez moslashishi, yangi g'oyalar va texnologiyalarni tez joriy etish imkoniyati bilan ajralib turadi. Natijada milliy iqtisodiyotning umumiy samaradorligi oshadi.

O'zbekiston sharoitida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda bu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib,

qulay biznes muhiti shakllantirilmogda. Soliq tizimini soddalashtirish, litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlar kichik biznes subyektlarining faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bularning barchasi milliy iqtisodiyotda kichik biznes ulushining ortishiga va uning iqtisodiy ahamiyati yanada mustahkamlanishiga olib kelmoqda.

Kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Aholining turli qatlamlarini ish bilan ta'minlash, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalar uchun yangi imkoniyatlar yaratishda kichik biznesning roli beqiyosdir. Kichik tadbirkorlik faoliyati orqali aholining o'z mehnati evaziga daromad topishi, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishi va iqtisodiy faolligi oshadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy tenglik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, kichik biznes hududiy rivojlanishda ham muhim ahamiyatga ega. Yirik sanoat korxonalari asosan markazlashgan hududlarda joylashgan bo'lsa, kichik biznes subyektlari mamlakatning barcha mintaqalarida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega. Bu holat hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga, chekka va qishloq joylarda iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi. Natijada hududlarning o'zini o'zi rivojlantirish salohiyati kuchayadi va milliy iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishi ta'minlanadi.

Kichik biznesning yana bir muhim jihati uning innovatsion salohiyati bilan bog'liq. Ko'plab yangi g'oyalar, texnologiyalar va biznes modellari aynan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan joriy etiladi. Chunki ular yirik korxonalarga nisbatan tavakkalchilikka moyilroq bo'lib, bozor ehtiyojlariga tez javob bera oladi. Innovatsiyalarning keng joriy etilishi esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi, eksport salohiyatini kengaytiradi va zamonaviy iqtisodiy tuzilmani shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda kichik biznesning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan beqarorliklar, tashqi omillarning ta'siri kuchaygan sharoitda aynan kichik biznes iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini oshiruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. U iqtisodiy inqirozlar sharoitida tezroq tiklanish, yangi ish o'rinlari yaratish va ichki bozorni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Shu sababli, milliy iqtisodiyotda kichik biznesning o'rnini va ahamiyatini chuqur tahlil qilish, uning rivojlanish omillari va muammolarini aniqlash hamda istiqbolli yo'nalishlarini belgilash dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi tutgan o'rnini, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, mamlakat taraqqiyotidagi roli kengroq yoritishga qaratilgan.

Mazkur mavzuning o'rganilishi kichik biznesni yanada rivojlantirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyotda kichik biznesning o'rni va ahamiyatini yoritishda iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlar muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar kichik biznesning iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash, raqobat muhitini shakllantirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi rolini keng yoritib beradi. Iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznes masalasi turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tahlil qilingan bo'lib, bu yondashuvlar milliy iqtisodiyot sharoitida mazkur sohaning ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kichik biznesning nazariy asoslari dastlab klassik iqtisodiy ta'limotlarda shakllangan. R.Kantillon o'zining mashhur asarida tadbirkorlik faoliyatini tavakkalchilik bilan bog'liq iqtisodiy jarayon sifatida talqin qilib, tadbirkorni bozor muvozanatini ta'minlovchi muhim subyekt sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, tadbirkor bozor sharoitida narxlar o'zgarishiga moslashib, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga erishadi. Ushbu qarashlar keyinchalik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ahamiyatini tushuntirishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilgan [1].

Iqtisodiy fikrlar tarixiga bag'ishlangan S.Suterin va M.Bruzgalinning asarlarida ham tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari va uning iqtisodiy tizimdagi o'rni atroflicha yoritilgan. Ushbu asarlarda bozor iqtisodiyotining shakllanishida kichik xo'jalik yurituvchi subyektlarning ahamiyati, ularning iqtisodiy erkinlik va raqobatni ta'minlashdagi roli ta'kidlanadi. Mualliflar kichik biznesni iqtisodiy tizimning dinamik va moslashuvchan elementi sifatida baholab, uning innovatsion jarayonlardagi ishtirokini alohida e'tirof etadilar [2].

Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim tadqiqot obyektiga aylangan. I.Kuznetsovning ishlarida Rossiya sharoitida kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinib, moliyaviy, institutsional va huquqiy choralar samaradorligi baholanadi. Muallif kichik biznesni rivojlantirishda davlatning faol ishtiroki muhimligini asoslab, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash choralari iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu xulosalar milliy iqtisodiyotda kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlashda davlat siyosatining ahamiyatini ochib beradi [3].

A.Petrov va V.Smironov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes rivojiga ta'sir etuvchi omillar keng tahlil qilingan. Ularning ishlarida iqtisodiy muhit, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, boshqaruv sifati va institutsional sharoitlar kichik biznes faoliyatining asosiy belgilovchi omillari sifatida ko'rsatiladi. Mualliflar

kichik biznesning muvaffaqiyati nafaqat tashqi qo'llab-quvvatlash, balki ichki boshqaruv imkoniyatlariga ham bog'liqligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv kichik biznesni milliy iqtisodiyotning mustaqil va faol subyekti sifatida baholash imkonini beradi [4].

M.Ivanovning tadqiqotlarida kichik biznesning o'sishida moliyaviy va boshqaruv imkoniyatlarining o'rni alohida yoritilgan. U kichik korxonalar uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi asosiy muammo ekanini ta'kidlab, samarali boshqaruv va innovatsion yondashuvlar orqali ushbu cheklavlarni yumshatish mumkinligini asoslaydi. Ushbu fikrlar kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini oshirishda inson kapitali va boshqaruv salohiyatining muhimligini ko'rsatadi [5].

O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati mamlakat sharoitidan kelib chiqib tahlil qilingan. Z.Xusanova kichik biznes rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini yoritib, uning aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi rolini asoslab beradi. Uning tadqiqotlarida kichik biznesning hududiy rivojlanishdagi ahamiyati ham alohida ko'rsatib o'tiladi [6].

A.Annayev [7] va O.Aripovning [8] ilmiy ishlarida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda davlat tomonidan yaratilayotgan qulay biznes muhiti, huquqiy kafolatlar va tartibga solish mexanizmlari kichik biznes rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlanadi. Mualliflar davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kichik biznesning iqtisodiy rolini yanada oshirishini ilmiy asoslab beradi.

X.Abduramanov va Sh.Zokirov tomonidan o'rganilgan xalqaro tajribalar kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda rivojlangan davlatlar amaliyoti muhim ekanini ko'rsatadi. Ular xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish orqali kichik biznes samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv milliy iqtisodiyotda kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion va institutsional mexanizmlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi [9].

Mahalliy olimlardan M.Abduraxmanova [10] va F.Mamatovlarning [11] tadqiqotlarida kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish masalalari chuqur tahlil qilingan. Ularning ishlarida kichik biznes rivojida tizimli yondashuv, sinergetik aloqalar va uzoq muddatli strategik mexanizmlarning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, Sh.Shodmonov va U.G'ofurovning [12] darsliklarida kichik biznes bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida nazariy jihatdan izohlangan.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ilmiy manbalarda kichik biznesning

iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati keng yoritilgan bo'lib, ushbu qarashlar mazkur mavzuni yanada chuqur o'rganish uchun mustahkam nazariy va amaliy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda milliy iqtisodiyotda kichik biznesning o'rni va ahamiyatini o'rganishda ilmiy bilishning asosiy metodologik yondashuvlaridan foydalanildi. Tadqiqot tizimli va kompleks yondashuv asosida olib borilib, kichik biznes subyektlarining iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash hamda aholi daromadlarini oshirishdagi roli tahlil qilindi. Iqtisodiy jarayonlarning sabab-oqibat bog'liqligini aniqlashda mantiqiy tahlil va sintez usullari qo'llanildi.

Statistik tahlil yordamida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasi, tarmoqlar va hududlar kesimidagi o'zgarishlar o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali kichik biznes ko'rsatkichlari yirik biznes faoliyati bilan solishtirilib, ularning iqtisodiyotdagi nisbiy ustunliklari baholandi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarini tahlil qilish asosida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi o'rganildi. Olingan natijalarni umumlashtirishda induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotda kichik biznes va kichik tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faollikning eng harakatchan va barqaror segmentlaridan biri bo'lib, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida olib borilgan liberallashtirish siyosati, tartib-taomillarni soddalashtirish, soliqlarning qisqartirilishi va biznes yuritish uchun zarur bo'lgan infratuzilmaning yaxshilanishi kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlarida sezilarli ijobiy natijalar paydo bo'lishiga olib keldi. Kichik biznesni rivojlantirishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari odatda ishlab chiqarish hajmi, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlik darajasi, soliqlar ko'rinishidagi tushumlar, eksport hajmi va investitsion faollik kabi omillar orqali namoyon bo'ladi. Shu ko'rsatkichlar asosida kichik biznesning iqtisodiyotdagi haqiqiy o'rni va ta'sirini aniqlash mumkin.

2020-2024 yillar oralig'ida kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin (1-rasm).


Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki, 2020-2024 yillar oralig'ida kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi muntazam o'sib bormoqda. 2020 yildagi 103 trln so'mdan 2024 yilda 286,7 trln so'mgacha oshishi bu sektorning dinamik rivojlanishini aks ettiradi. Shu bilan birga, kichik biznesning umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 2023 yilda 27,0 % dan 2024 yilda 32,4 % ga yetdi. Bu raqamlar kichik tadbirkorlikning mamlakat sanoatidagi ahamiyati ortib borayotganini va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynashini

ko'rsatadi. Ushbu tendensiya kelajakda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish siyosatini davom ettirish zarurligini tasdiqlaydi.



1-rasm. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat ishlab chiqarishi hajmi, *yanvar-dekabr, mlrd so'mda* [13]

2024-yilda kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 286,7 trillion so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,4 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich kichik biznesning mamlakat sanoatidagi o'rnini yaqqol ko'rsatadi. O'tgan yillarga nazar tashlaganda, 2020 yildan boshlab kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ishlab chiqarishdagi ulushi o'zgaruvchan bo'lib, ba'zan kamayish, ba'zan esa oshish tendensiyasi kuzatiladi. Masalan, 2023 yilning yanvar-dekabr oylarida ulush 27,0 % bo'lib, bu 2024 yilga kelib 32,4 % ga yetgan. Bu ko'rsatkichlar kichik biznesning rivojlanishi, samaradorligi va innovatsion yechimlarni joriy etish qobiliyatini ifodalaydi. Shu bois, sanoat ishlab chiqarishdagi kichik tadbirkorlikning ulushi iqtisodiy barqarorlik va ish o'rinlarini yaratishda muhim parametr hisoblanadi. 2020-2024 yillarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushini quyidagi rasmda shakllantirib berdik (2-rasm).



2-rasm. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi, *yanvar-dekabr, % da* [13]

Mazkur rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2020 yildan 2022 yilgacha kichik tadbirkorlik sub’ektlarining sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi pasayish tendensiyasini ko‘rsatgan. 2023 yilda bu ko‘rsatkich 27,0 % ga ko‘tarilgan bo‘lsa, 2024 yilda sezilarli o‘shish bo‘lib, ulush 32,4 % ga yetgan. Ushbu o‘shish kichik biznesning ishlab chiqarish hajmi va samaradorligining oshgani bilan bog‘liq bo‘lib, 286,7 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Bu ko‘rsatkich kichik tadbirkorlik sub’ektlarining milliy sanoatdagi ahamiyatini va iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirganini tasdiqlaydi.

Kichik tadbirkorlik sub’ektlarining sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi hududlarda iqtisodiy faollik darajasini baholashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. 2020-2024 yillar davomida kichik tadbirkorlik sub’ektlarining jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi mamlakat sanoatidagi tarkibiy o‘zgarishlar va kichik biznesning rivojlanish dinamikasini yaqqol aks ettiradi. Yillar kesimida ko‘rsatkichlarning o‘zgarib borishi kichik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmi, ularning texnologik yangilanishi va davlat tomonidan berilgan imtiyozlarning samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Ba’zi yillarda ulushning pasayishi iqtisodiy sharoitlarning keskin o‘zgarishi yoki yirik korxonalar ulushining ortishi bilan izohlanadigan bo‘lsa, keyingi davrlarda o‘shish kuzatilishi kichik biznesning bozorga moslashuvchanligi va ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion yechimlardan keng foydalanilayotganini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, kichik tadbirkorlikning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi mamlakat iqtisodiy barqarorligi, raqobat muhiti, yangi ish o‘rinlari yaratish jarayoni va mahalliy mahsulotlar ulushini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 2020-2024 yillarda kichik tadbirkorlik sub’ektlarining jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin (1-jadval):

1-jadval

Kichik tadbirkorlik sub’ektlarining jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushining hududlar bo'yicha taqsimlanishi [13]

Hudud	Ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)	Ulush (%)
Surxondaryo	9 652,2	64,8
Farg‘ona	26 178,9	54,5
Samarqand	23 694,7	51,3
Namangan	15 970,3	50,0
Buxoro	17 448,3	41,2
Sirdaryo	8 127,6	40,9
Toshkent sh.	67 214,3	39,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	9 218,0	37,5
Qashqadaryo	14 155,4	35,8
Andijon	27 085,4	29,9
Toshkent	41 463,2	29,8
Jizzax	7 014,4	27,2
Xorazm	6 106,0	21,0
Navoiy	13 346,5	9,2

Ushbu jadvaldagi ma’lumotlarni tahlil qilganda, kichik tadbirkorlik sub’ektlarining sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi hududlar bo‘yicha sezilarli darajada

farq qilishi kuzatiladi. Eng yuqori ulush Surxondaryo (64,8%) va Farg'ona (54,5%) viloyatlarida qayd etilgan. Bu hududlarda kichik biznesning sanoat ishlab chiqarishidagi hissasi katta bo'lib, mahalliy iqtisodiyotning barqarorligiga va ish o'rinlari yaratishga muhim ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, Namangan va Samarqand kabi viloyatlar ham 50% yaqin ulushga ega bo'lib, bu hududlarda kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanganligini ko'rsatadi.

Boshqa hududlarda ulush nisbatan pastroq, masalan, Navoiy viloyatida faqat 9,2% tashkil qiladi. Bu esa hududda kichik tadbirkorlikning sanoat ishlab chiqarishidagi rolining cheklanganligini va mahalliy iqtisodiy rivojlanish uchun qo'shimcha rag'batlantirish choralarini talab qilishini ko'rsatadi. Toshkent va Andijon shaharlarida ulush taxminan 30% darajasida bo'lib, bu hududlarda kichik biznes va yirik korxonalar o'rtasidagi muvozanatni ko'rsatadi.

Hududiy tafovutlar iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq: sanoat infratuzilmasi, hududiy siyosat, investitsiya imkoniyatlari va mahalliy resurslarning mavjudligi ularga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, past ulushga ega hududlarda kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari, kredit resurslari, texnologik qo'llab-quvvatlash va tayyorgarlik dasturlarini amalga oshirish muhim hisobladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ri va ahamiyati nihoyatda muhim bo'lib, u iqtisodiy o'sishni ta'minlash, bandlik darajasini oshirish va aholi farovonligini yaxshilashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning moslashuvchan va tezkor segmenti sifatida bozor talablariga tez javob qaytarishi, innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlarining yuqoriligi hamda hududiy rivojlanishda muhim rol o'ynashi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ichki bozorni to'ldirish, raqobat muhitini shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda kichik biznesning hissasi beqiyosdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholining daromad manbalari kengayadi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish imkoniyatlari ortadi. Shu bilan birga, kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Biroq, mavjud salohiyatdan to'liq foydalanish uchun kichik biznes faoliyatida uchrayotgan ayrim tizimli muammolarni bartaraf etish zarurati mavjud.

Shu nuqtai nazardan, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlari uchun qulay va barqaror biznes muhitini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlarini raqamlashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi taklif sifatida kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Xususan, imtiyozli kreditlar,

subsidiyalar va grantlar hajmini oshirish, startap loyihalarni moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Uchinchi taklif kichik biznesning innovatsion va texnologik rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilishi kerak. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan keng foydalanish, elektron savdo va onlayn xizmatlarni rivojlantirish kichik biznesning samaradorligini oshiradi. To'rtinchidan, tadbirkorlik bilimlari va malakasini oshirish masalasiga e'tibor kuchaytirilishi lozim. Tadbirkorlar uchun o'quv kurslari, konsultatsion xizmatlar va mentorlik dasturlarini rivojlantirish kichik biznesning barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, hududlarda kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni amalga oshirish, infratuzilmani yaxshilash va mahalliy resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish zarur. Umuman olganda, kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va uning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish milliy iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Cantillon. Essai sur la nature du commerce en général. - Londres: 1755. 432 p.
2. Suterin S.Bruzgalin M.Istoriya ekonomicheskix ucheniy. Uchebnik dlya vuzov. 3-izd M.: Must, 2007, S.123;
3. Кузнецов И. (2019) Государственные механизмы поддержки малого бизнеса в России // Economic Review. № 7. С. 45-53.
4. Петров А., Смирнов В. (2020) Факторы, влияющие на развитие малого бизнеса // Journal of Business Research. № 11. С. 112-118.
5. Иванова М. (2018) Финансовые и управленческие возможности в росте малого бизнеса // International Journal of Entrepreneurship. № 5. С. 77-84.
6. Xusanova Z. (2021) Small business development in Uzbekistan: socio-economic aspects // Iqtisodiyot va Ta'lim. 4-son.
7. Annayev A. (2020) Institutional support for small enterprises in Uzbekistan // Journal of Economic Policy. № 3. P. 34-41.
8. Aripov O. (2019) State regulation and support of private entrepreneurship in Uzbekistan // Economic Studies. № 6. P. 56-63.
9. Abduramanov X., Zokirov Sh. (2021) International experience in small business support and its adaptation in Uzbekistan // Business and Management Journal. № 2. P. 22-30.
10. Abduraxmanova M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T: 2012, 8-9-bet

11. Mamatov F.F. Kichik biznesning rivojlanish muammolariga sinergetik yondashuv asosida uni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. -T.: "Iqtisod-moliya". 2018. 183-bet.
12. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi Darslik. T., 2020.- 136-bet.
13. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti